

Amir Temur o'g'itlarining uslubiy-tarbiyaviy ahamiyati

Doston Olimjon o'g'li Muxtasarov
Alisher Navoiy nomidagi o'zbek tili va adabiyot universiteti

Annotatsiya: Maqolada Amir Temur o'g'itlarini muhim tarbiya vositalarida o'rganish va u foydalanayotgan adabiyotlar bilan ishlash, targ'ib qilishi, ma'naviy me'rosi haqida ta'lim jarayonida o'quvchilarga tushuncha va ko'rsatmalarni berish ishlari olib boriladi.

Kalit so'zlar: Amir Temur, orzu-havas, mehnatga chanqoqlik, mehr-muhabbat, fidoiylilik, adolat, ta'lim jarayoni, ma'naviy meros, insonparvarlik, el-yurt osoyishtaligi, "Temur tuzuklari", "Dil ba yor-u, dast ba kor"

Methodological and educational significance of Amir Temur's teachings

Doston Olimjon o'g'lu Mukhtasarov
Uzbek Language and Literature University named after Alisher Navoi

Abstract: The article deals with the study of Amir Temur's teachings as important educational tools and the work with the literature used by him, his promotion, and giving instructions to students in the educational process about his spiritual heritage.

Keywords: Amir Temur, desire, thirst for work, love, dedication, justice, educational process, spiritual heritage, humanitarianism, peace of the country, "Temur tuzuklari", "Dil ba yor-u, dast ba kor"

*Shijoatli kishilarni do'st tut, chunki Tangri taolo jasur kishilarni ardoqlaydi.
Amir Temur*

Ma'lumki, tarbiya ko'proq ta'lim jarayonida berib boriladi. Bolalarga maktabga kelgan kundan boshlab, bilim olishga havas, unga intilish tuyg'usi shakllantiriladi.[5] O'quvchilarda asta-sekin bilan bilim olishga ehtiyoj paydo bo'ladi va bu borada o'quvchilarni ma'naviy o'zuqa olishni va aqliy rivojlanishni boshlaydi Bolada kelajakka intilish, orzu-havas, mehnatga chanqoqlik, ona Vatanga mehr-muhabbat, fidoiyligi, milly g'urur, matonat, mehr-oqibat, do'stlik, ezgulik kabi yuksak xisssiyotlar paydo bo'ladi.[6]

Ulug' allomalarimiz asarlarida bolalarga go'daklik chog'idanoq kattalarga hurmat va keksalarni doimo e'zozlash, ota-onaga alohida ehtiromlar ko'rsatish, o'zidan

kichiklarni izzatini o'rniga qo'yish kabi ajoyib qadriyatlarni kelajak avlodga me'ros qilib qoldirilgan.[7]

Shulardan biri sohibqiron bobomiz Amir Temur asarlari, o'gitlari misolida o'quvchi-yoshlarni ongini ta'lim, tarbiya tushunchalarini singdirish muhim ahamiyatga ega bo'ladi.

Amir Temur - O'rta Osiyo va Jahon mamlakatlar quyidagicha qarashadi:- buyuk davlat arbobi, kuragi yer ko'rmagan sarkarda, qonunshunos, ruxshunos, notiq, iste'dotli me'mor va adolat ustiga barpo etilgan yurt asoschisi sifatida ta'rif etiladi. O'z xalqining tinchligi va oilaviy faravonligi xizmatida bor shijoati kuch-g'ayratini bagi'shlaganligi uchun uni bu yo'lda o'z umrini bag'ishlagan va bu esa jahonga buyuk qilgan insonning insoniy fazilatlarini, ta'lim-tarbiyasini uning hayotiy tajribalarini bir kichik maqolada yoritish qiyin vaziyat bo'ladi.[1],[2],[3]

Amir Temur 7 yoshidan ilm olishni boshlaydi. Bu uning ilmga bo'lgan birinchi faoliyatiga qaramasdan uning ilmga bo'lgan qiziqishi va o'tkir zehni evaziga ta'lim jarayonida yaqqol peshqadamligi bilinib turadi. Yosh yigit bolalik kezlaridayoq o'zini harbiy-texnikaviy mashg'ulotlarda xam o'zini sinab ko'rishni boshladi va bunda uning harbiy salohiyatda dovyurakligi, mardligi, jasurligi qobilyati bilan omma e'tiboriga tushadi. Jang san'atini mukammal egallaydi. Qur'oni Karimni yod oladi, hadis ilmini o'rgandi. O'rgangan bilimlari ostida halol, pok, aql-zakovatli, e'tiqodi mustahkam, adolatlatli inson bo'lib yetishadi.[2] Amir Temur yovuzlikni, johillikni, zo'ravonlikni hushlamas, adolat va insonparvarlikni ulug'lar edi. Uning tarix kitoblarida, monografiya va ilmiy izlanish adabiyotlarida keltirilgan "Kuch adolatdadir" degan ulug' davlat qomusini belgilab bergan gapi bunga yaqqol misol bo'la oladi. Yana aytish mumkinki, uning jahonga mashhur va har bir davlat rahbarlarining ish faoliyati boshlashda shu ko'rsatmalardan keng foydalanishda yordam bergan "Temur tuzuklari" kitobida ham bu g'oyalar va teran tafakkurlar ilgari surilgan. Asarda nafaqat jang san'ati, mamlakatni qanday boshqarish yoriqnomasi balkim odob-axloq me'yorlari, yoshlarni ma'naviyatga boshlovchi g'oyalar keng yoritilib berilgan. Taniqli olim Bo'riboy Ahmedov "Temur tuzuklari" podshohlarning turish-turmush va odob-axloq normalarini belgilab beruvchi risoladir, deb tariflaydi.[2][3]

Amir Temur hayotining katta qismini jang maydonlarida o'tkazish davomida kelajak yosh avlodga hayotiy turmush odobi, hulq-odob qoidalari, jamiyatning ma'naviyat-madaniyat haqida bir-biriga o'xshamagan o'gitlarini meros qilib qoldirgan va bu o'gitlarni pedagogika jarayonida qo'llash ta'limda ko'zlangan maqsadga erishga katta bir ko'mak beradi.[1] Amir Temurning ma'naviy merosida insonparvarlik, adolatlilik, mehnatsevarlik, vatanga sadoqat, to'g'rilik, do'stlikhamkorlik, mehr-muruvvat ko'rsatish, yaxshilik, sabr-qanoat kabi xislatlar ulug'lanib, xiyonat, bevafoqlik, sotqinlik, yolg'onchilik qoralanadi. [1]

Yashagan umrini davomida o'zining birdan-bir hayotiy tayanchi "Bo'yingga qilich kelsa xam rost gapirgin" amallariga soqid bo'ladi. Amir Temurning madaniyat va san'atda va memoriy obodonchilik faoliyatida o'zini naqshbandiylik g'oyalarida "Dil ba yoru, dast ba kor" tamoyiliga ko'ra ish tutib, ulug' ustozlari Yusuf Xos Hojib, Abu Nasr Farobiy, Jaloliddin Davoniy va boshqalar tomonidan targ'ib etilgan va yetuk komil insoniylik, adolatli hukmdorlik uchun zarur bo'lgan quydagi o'n ikki qoidani va yo'riqnomalarni o'ziga yo'riq qilib olganini ko'ramiz: [3],[4]

1. Har yerda va har vaqtda Islom dinini quvatlash;
2. Davlat va saltanatni boshqarishda o'n ikki tabaqa;
3. Toifadagi kishilarga tayanish;
4. Dushman bilan kurashda maslahat;
5. Kengash;
6. Tadbirkorlik bilan ish ko'rish;
7. Faolik;
8. Hushyorlik ko'rsatish;
9. Ehtiyotkorlik ko'rsatish;
10. Saltanat ishini yurgizishda murosayu madora;
11. Muruvvat bilan ish ko'rish;
12. Sabr-toqat bilan ish ko'rish.

Amir Temur umri davomida va harbiy yurishlari davomida o'zi qat'iy amal etgan, haqiqiy yetuklik sof qadriyat belgisi sanalgan din, imon, aql bilan ish ko'rish, amalga oshirish va ilmga e'tiqodni, o'rganishni boshqalarga ham tavsiya etgan hamda kelajak avlodlarni ham shu ruhda komil inson bo'lib yetishiga katta kuch-g'ayratini bilan xizmatlarini qo'shgan.[2] Quyida uning shu mazundagi zamondoshlari va kelajak avlodlar orasida keng tarqalgan o'gitlarini misol keltirishimiz mumkin:

1. Yaxshi odam yurt tuzar, yomon odam yurt buzar.
2. Kuch-g'ayratli, jasur insonni do'st tut, chunki Alloh bu fazilatli insonlarni ardoqlaydi.
3. Ulamo, donishmand va keksa nuroniylar bilan suhbatda bo'l va pok niyyatli, toza qalbli kishilargagina quloq sol.. Bularning hikmatlaridan maqsad belgilab, muborak nafaslar bilan dou-fotiha berishlarini iltimos qil.
4. Bir tayoqni jiplab dars ettirish mumkindir, ko'p tayoqni jiplab bukolmasdan qolasan.
5. Og'zing isrof qon to'lgan bo'lsa ham, dushman oldida past ketib tupurma.

Amir Temur zamonida musiqa, badiiy adabiyot, rassomlik sa'nati rivoj topib, yoshlarga she'r yozish, rasm chizish, musiqa aspoblarini chalish, kitobxonlik, lison ilmi, husniyat o'rgatilgan. Sohibqironing buyuk saltanatida madaniyatda, memoriy obidalarda ijod qilgan shoirlar, rassomlar, mashshoqlar va boshqalar buning yaqqol dalilidir.[3] Bu davrda katta shahar hunarmandlari hamda ashula, raqs, suxandonlik

bilan shug'ullanganlari haqida Sharafiddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma" asarida qayd etilgan.

Sohibqiron Amir Temur o'zining hayoti tamoyillari haqida shunday degan edi:

"Men o'z hayotim davomida besh narsaga qa'tiy e'tiqod qildim va hamisha ularga qattiq amal qildim, ular ushbulardir:

Alloh - ul har narsaga qodir kuch, sidqidildan sig'insang, istagan murod-u maqsadingga yetkazadi;

Tafakkur- fikrlash va mushohada qobilyati;

Qilich - ul yigitning yo'ldoshi, el-yurt osoyishtaligining posponi, har qanday dushmanning mahv etish quroli, aning qudrati ila dinsizlarni dinga solmoq mumkin;

Imon - ul insonni barcha dunyogadi tiriklardan farqlantirib turuvchi xususiyatdir. Imonli-diyonatli inson xiyonat qilmaydi, qarindosh-urug'lari, el-yurtning or-nomusini, qadr-qimmatini himoya qiladi, uning insoniy fazilatlarida halollik va pokizalikni Sharaf deb biladi;

Kitob (bitik) - barcha memoriy, madaniy-ma'naviy yuksalishdagi bunyodkorlik, yaratuvchanlik va aql-zakovatning, ilm-u donishmandlikning asosidir; hayotni o'rgatuvchi, faqat to'g'ri yo'l bilan suhbatlashuvchi murabbiydir.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash kerak, Amir Temurning ibratli, hayotiy pand nasixatlari va o'gitlarining har biri ma'no-mazmunan kengligi, mantiqning kuchliligi, teranligi, ta'siri umuminsoniy qadriyatlar asosiga qaratilganligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi va ularni bitmas-tuganmas xazina, odob-axloqqa oid dasturlar deya e'tirof etib, o'zimizning hayotimizda ish faoliyatimizda, o'gir mushkilotga yuz tutganimizda oqilona yo'l topishimizga sohibqiron bobomizning ilmiz xazinalari sabab bo'la oladi. Bu tuzuklari, o'gitlar sohibqironning hayotida katta mashaqqatlar va sertashvishlar, goh muvaffaqiyatli damlari, goh muvaffiqiyatsiz onlarida, goh quvonchli lahzalarida, goho anduhli paytlarida umrining ijodiy mevasi hamda xalqni bir maqsad yo'lida farovon tinch-totuv hayot kechirishlikda birlashtirgan, jipslashtirgan sehrli va tarbiyaviy kuchga ega bo'lgan yuksak, qimmatbaho xalqimizning durdona merosdir.[3][4][5]

Foydalanilgan adabiyotlar

1. "Temur tuzuklari" [forschadan Alixonto'ra Sog'unuy va Habibulla Karomatov tarjimasi], 1991,1996;
2. "Temur tuzuklari" ni O'zbekistonda o'rganish muommolari [Temuriylar davri madaniy yodgorliklari], 2003
3. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" "Davlat ilmiy nashriyoti" Toshkent 2011.
4. Амир Темур ўғитлари Тимур Акрам Аминов , Navruz nashriyot Toshkent 1992
5. Pedagogika tarixi, A. Zunnunov, "Sharq" nashriyoti, Toshkent-2004, 332-bet

6. Pedagogika tarixidan xrestomiya, "Husanxoljayev M.. T., Toshkent-1963, 130-bet.

7. Pedagog va amalyot, Janet Soler, Keti Xoll, Patrisiya Merfi, ingliz tili, SAGE nashri,2012 yil, 21-iyun, 232-bet